## ***60710200-Biotexnologiya (oziq-ovqat, ozuqa, kimyo va qishloq xo'jaligi)* bakalavriat ta'lim yo'nalishi**

*60710200-Biotexnologiya (oziq-ovqat, ozuqa, kimyo va qishloq xo'jaligi)* bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining meyoriy muddati 4 yil.

Biotexnologiya (oziq-ovqat, ozuqa, kimyo va qishloq xo'jaligi) bakalavriat ta'lim yo'nalishi fan va texnika sohasidagi yo'nalish bo'lib, biotexnologiya bo'yicha ishlab chiqarish, qayta ishlash, tadqiq qilishga yo'naltirilgan vositalar, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar va jihozlarni tatbiq etish, zamonaviy va xavfsiz ishlab chiqarishni tashkil etish va uni boshqarish masalalarini qamrab oladi.

## Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- biotexnologik ishlab chiqarish korxonalari xom-ashyo va materiallari;
- mikrobiologik ishlab chiqarish produtsentlari;
- noan'anaviy biologik manbalar;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari;
- mahsulotlarni qayta ishlash texnologik jarayonlari va jihozlari.